



**YUZ-JAG' QISMI SHIKASTLANGAN BEMORLARNI YUZ-JAG'
JARROHLIK BO'LIMIDA PARVARISH QILISH.DEONTOLOGIYA
TUSHUNCHASI**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yuz-jag' sohasi shikastlangan bemorlarni parvarish qilishning asosiy tamoyillari, hamshiralik yordamini tashkil etish, hamda tibbiy deantologiya talablariga amal qilish masalalari yoritilgan. Yuz-jag' jarohatlari bemorning nafaqat jismoniy, balki psixologik holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun parvarish jarayonida shifokorning kasbiy mahorati, ehtiyotkorligi, bemorga nisbatan xushmuomalaligi va axloqiy yondashuvi muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *Yuz-jag' jarrohligi, parvarish, deontologiya, bemor psixologiyasi, irrigator, aseptika va antiseptika.*

Stomatologiya-bu nafaqat tibbiyotning inson sog'ligini saqlashga qaratilgan sohasi, balki juda yuqori darajadagi ma'suliyat, axloq va kasbiy etikani talab qiluvchi fan hisoblanadi. Talaba-stomatolog nafaqat klinik ko'nikmalarni balki deontologik va etik tamoyillarni ham chuqur bilishi lozim.

Shikastlanish turlari. Yuz-jag' sohasi shikastlanishlari quyidagi turlarga bo'linadi: Yaproq va yupqa teri shikastlanishlari, Yumshoq to'qimalar shikastlanishi (gematoma, jarohat, yiringli jarayonlar), Suyak shikastlanishlari (jag' suyagi sinishi, dislokatsiya, jarohatli osteomielit), Komplwks shikastlanishlar (yuzning bir nechta anatomic sohasi). Yuz-jag' sohasi shikastlanishlari-bu nafaqat suyak yoki yumshoq to'qimalarning shikastlanishi, balki nafas olish, ovqatlanish, nutq va tashqi ko'rinishga ta'sir etuvchi og'ir patologik holatdir. Bunday bemorlarga to'g'ri parvarish ko'rsatish ularning tez sog'ayishi va asoratlarning oldini olishda hal



qiluvchi ahamiyatga ega. Bemorni qabul qilish va boshlang'ish parvarish. Bemorni qabul qilishda birinchi navbatda nafas olish, yurak qon tomir faoliyati va og'riq holati baholanadi; Qon ketish bo'lsa, to'xtatish choralari ko'riladi (tamponada, bosim povyazka, gemostatik vositalar); Yuz va bo'yin sohasidagi shikastlar nafas yo'lining tortib qolishi xavfini keltirishi mumkin, shuning uchun bu holatlar tezkor nazorat talab qiladi. Yuz-jag' shikastlanishi bo'lgan bemorlarga parvarish qilish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: Bemorga tinchlik va qulay holat yaratish; nafas olish va qon aylanishni nazorat qilish; Ovqatlanish va suyuqlik qabul qilishni ta'minlash; Og'iz bo'shlig'ini tozalikda saqlash; Yara va povyazkalarni to'g'ri parvarish qilish; Aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish; psixologik yordam va ruxiy qo'llab quvvatlash. Ovqatlanish va parhez. Birinchi kunlarda faqat suyuq va yarim suyuq ovqatlar tavsiya etiladi; Ovqat iliq va oz-ozdan beriladi; Vitaminlar (A, C, E), temir va kalsiyga boy maxsulotlar tavsiya etiladi; Agar bemor og'iz orqali ovqat yeya olmasa, zond orqali ovqatlantirish amalga oshiriladi; har bir ovqatlanishdan so'ng og'iz bo'shlig'ini antiseptik yechimlar bilan chayiladi. Og'iz bo'shlig'ini parvarish qilish. Yuz-jag' shikastlanishida og'izda mikroob ko'payishi xavfi yuqori bo'ladi. Shuning uchun: Kunda 2-3 marta antiseptik bilan chayish kerak; Tishlarni extiyotkorlik bilan, yumshoq cho'tka bilan tozalash kerak; Fiksatsiya qilingan holatlarda irrigator yoki shpiritsiz igna orqali og'izni chayish tavsiya etiladi. Yara va povyazklarni parvarish qilish. Povyazka har kuni shifokor ko'rsatmasiga ko'ra almashtiriladi; Teri atrofida antiseptik yechimlar bilan tozalanadi; Yara ustiga steril bint yopiladi; Povyazka juda qattiq bo'lmasligi, nafas olishni cheklamasligi kerak; Agar yaradan yomon xid, suyuqlik yoki issiqlik kuzatilsa bu infeksiya belgisi, darhol shifokorga murojaat qilish kerak. Asoratlarning oldini olish. Yuz-jag' shikastlanishlarda quyidagi asoratlar kuzatilishi mumkin: Flegmona, Abstess, Osteomielit; Qon ketishi; Deformatsiya yoki kontrakturalar; Nafas olishning buzilishi; Bularning oldini olish uchun: Aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy rioya qilish, Antibiotik va yallig'lanishga qarshi davoni o'z vaqtida boshlash, Fizioterapiya, bemorning haroratini va holatini kuzatib borish. Ruxiy va psixologik yordam. Yuz-jag' sohasi shikastlangan bemorlarda tashqi ko'rinish



o'zgarishi sababli ruxiy tushkunlik, uyalish, izolyatsiya xissi paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun: Shifokor va hamshira bemorga mehr bilan, taqdirlaydigan munosabatda bo'lishi kerak; Xavotirni kamaytirish, ishonch uyg'otish muhim; Zarur hollarda psixolog yordami tavsiya etiladi. Yuz terisi yonib shikastlanganda. Pantenol, Solkoseril kabi mazlar qo'llaniladi; Yarani tozalikda saqlash, mexanik tasirdan himoya qilish kerak; Ko'p suyuqlik ichish va vitaminli ovqat tavsiya etiladi. Operatsiyadan keyin: Birinchi 24 soatda operatsiya joyiga sovuq compress qo'yiladi. Drenaj holati kuzatiladi. Bemor tinch holda yotishi kerak. Shifokor tavsiyalariga qat'iy amal qilish shart.

Stomatologiyada deontologiya tushunchasi. Deontologiya-bu tibbiy xodimning o'z kasbiy burchiga, bemorga, xamkasblariga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini belgilaydigan axloqiy qoidalar tuzilmasi. Stomatologning dentologik burchi: Bemorga hurmat bilan munosabatda bo'lish; Soz' va hatti-harakatda mehr va extiyotkorlik; Tibbiy sirni saqlash; Davolashda xolislik va insoflilik; Bemorga ishonch uyg'otish va unda ijobiy kayfiyatni taminlash.

Xulosa

Yuz-jag' sohasi shikastlangan bemorlarni parvarish qilish murakkab va ma'sulyatli jarayon bo'lib, u nafaqat tibbiy, balki axloqiy yondashuvni ham talab qiladi. Parvarish jarayonida shifokor bemorning og'riq holatini kamaytirish, yarani to'g'ri davolash, gigiyenik tozalikni saqlash va ruhiy qo'llab quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Deontologiya tamoyillariga amal qilish shifokorning kasbiy odobi, bemorga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, sir saqlashi va tibbiy muolajalarni insonparvarlik asosida bajarishni ta'minlaydi. Shu boisdan, shifokorlik faoliyatida deontologik me'yorlarga qat'iy rioya etish parvarish sifatini oshirish, bemorning sog'ayish jarayonini tezlashtirish va uning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuz-jag' jarohatlari. A. Abdullayev. (Toshkent. 2022)
2. Yuz-jag' travmatologiya. Jilonov A.A., Abduqodirov A.A.
3. Hamshiralik ishi asoslari. K.U. Zokirova. 2008